

GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARIDA METAFORA

Azimova Dilobar Shermamat qizi,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: azimovadilobar27@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek shoirasi Guljamol Asqarova she'rlarida qo'llangan metaforalarning linvopragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Metaforaning nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki muallifning kommunikativ niyati va o'quvchiga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi roli yoritiladi. Shoiri ijodida metaforalar orqali inson ruhiyati, tabiat va muhabbat tuyg'ularining ifodalanishi linvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida metaforaning o'quvchi tafakkuriga ta'sir etuvchi muhim lingvistik vosita ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: metafora, linvopragmatika, badiiy nutq, poetik til, kommunikativ niyat, zamonaviy o'zbek she'riyati, inson ruhiyati.

Аннотация. В данной статье анализируются прагмалингвистические особенности метафор, используемых в стихотворениях современной узбекской поэтессы Гульджамол Аскаровой. Освещается роль метафоры не только как художественного средства выразительности, но и как средства реализации коммуникативного намерения автора и воздействия на читателя. В творчестве поэтессы с прагматической точки зрения рассматривается выражение внутреннего мира человека, образов природы и чувств любви посредством метафор. В результате исследования установлено, что метафора является важным лингвистическим средством, оказывающим влияние на мышление читателя.

Ключевые слова: метафора, прагмалингвистика, художественная речь, поэтический язык, коммуникативное намерение, современная узбекская поэзия.

Abstract. This article analyzes the pragmalinguistic features of metaphors used in the poems of the modern Uzbek poet Guljamol Asqarova. The study highlights the role of metaphor not only as a stylistic device of artistic expression but also as a means of conveying the author's communicative intention and influencing the reader. From a pragmatic perspective, the article examines how metaphors in the poet's works express the human inner world, images of nature, and feelings of love. The research findings demonstrate that metaphor functions as an important linguistic tool that influences the reader's perception and thinking.

Key words: metaphor, pragmalinguistics, artistic speech, poetic language, communicative intention, modern Uzbek poetry.

Kirish. Ma'lumki, badiiy asarlarning tasirchanligini ta'minlashda kitobxonning estetik zavq olishi yoki qayg'uga botishini tasvirlashda tilning leksik va grammatik vositalari ahamiyatlidir. Badiiy nutq uslubida yozilgan asarlarni tasviriy vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Lingvistikada eng ko'p tarqalgan so'z ma'nolari adabiy uslubiy vositalarida, ya'ni ko'chma ma'noli so'zlarda uchraydi. Uslubiy figuralar deb ataluvchi tasvir vositalari – takror, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, metafora, sinekdoxa, ironiya, funksionallik, antiteza, ellipsis, ritorik so'roqlarning badiiy uslubda faol qo'llanilishi bu uslubning o'ziga xos tarkibi mavjudligini ko'rsatadi [5]. Ushbu turlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng ko'p turga ega bo'lgani bu metafora hisoblanadi. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metafora (yunoncha *metaphora- ko'chirish*) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir [6]. Masalan: *fan cho'qqisi, yurtimiz*

quyoshi, dalaning etagi....

Adabiyotlar tahlili. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, ular ifodalagan ikkinchi bir leksik ma’nolar to‘g‘risida juda ko‘plab olimlar, jumladan, prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo‘jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Hozirgi zamon tilshunoslari ham ko‘chim turlari, xususan, metaforalarning turli xil jixatlarini ilmiy tadqiq etib kelmoqdalar. Metafora badiiy nutqda obraz yaratishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. U voqelikni yangicha talqin qilish imkonini beradi. Lingvopragmatik nuqtayi nazaridan esa metafora muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqani ta‘minlovchi muhim vositadir. Shoir metafora orqali nafaqat fikr bildiradi, balki o‘quvchida ma‘lum hissiy ta‘sir ham uyg‘otadi. Shu jihatdan metafora badiiy matnning pragmatik ta‘sirini kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, lingvopragmatik va stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Guljamol Asqarova she‘rlaridagi metaforalar matn asosida tahlil qilinib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari ochib berildi. Shuningdek, metaforalarning o‘quvchiga ta‘siri hamda muallif kommunikativ niyatini ifodalashdagi roli badiiy misollar orqali yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Guljamol Asqarova she‘rlari yuksak obrazga ega, o‘zigagina xos metaforalarning asosiy manbaidir. Guljamol Asqarova she‘rlarida metafora inson ruhiyati va hayotiy kechinmalarni tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. Shoira ko‘pincha tabiat obrazlari orqali inson his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Masalan, uning “Aldanish fasli” she‘rida quyidagi misralar uchraydi:

Bilib bo‘lmas, bu Kuzmi Bahor?

Umrinda Gul qilmoqda faryod.

Bir yomg‘irpo‘sh bo‘la olmading,

Menga baxtlar atagan hayot! [1.57.]

Mazkur she‘rda muallif inson hayotidagi iztirob, umid va armonlarni badiiy tasvirlash uchun metaforalardan keng foydalanadi. Metafora nafaqat obraz yaratish, balki o‘quvchiga kuchli ta‘sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. She‘rning bu qismida “*Bir yomg‘irpo‘sh bo‘la olmading*” misrasida “*yomg‘irpo‘sh*” so‘zi metaforik ma’noda qo‘llanib, insonni hayot qiyinchiliklaridan asraydigan himoya yoki tayanch obrazini anglatadi. Pragmatik jihatdan bu metafora shoirning ichki armoni va hayotdan ko‘ngli to‘lmaganini ifodalaydi. Shuningdek, “*Menga baxtlar atagan hayot!*” misrasida hayotga murojaat qilinishi personifikatsiya (jonlantirish) orqali berilgan metaforik tasvirdir. Bu yerda hayot go‘yo inson kabi “baxt ulashuvchi” sifatida tasvirlanadi. Umuman olganda, she‘rda qo‘llangan metaforalar muallifning kommunikativ niyatini – inson hayotidagi quvonch, iztirob va armonlarni o‘quvchiga chuqur his qildirishni ta‘minlaydi. Pragmatik jihatdan bu badiiy vositalar o‘quvchining hissiy idrokiga ta‘sir qilib, she‘r mazmunini yanada ta‘sirchan qiladi.

Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-hodisalarning aniq, ishonarli va yorqin tasvirlashda metaforaning o'рни beqiyosdir. Badiiy nutqda metafora eng ko'p ishlatiladigan tasvir vositalaridandir. Metafora nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatilishini hosil qiluvchi badiiy-tasvir vositasi hisoblanadi. Bu haqida M. Mukarramovning "O'zbek tilida o'xshatish" kitobida batafsil ma'lumot keltirilgan [7]. Guljamol Asqarova she'rlari yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, shoira o'z ijodiy ishlarida yashirin o'xshatish nomi bilan ataladigan metaforalardan unumli foydalangan. Shoiraning "Umid" she'rida sodda metaforalar asar mazmunini yoritish uchun xizmat qilgan. Ijodkor ushbu asarida metafora shaklida qo'llangan birikma bilan o'xshatilayotgan narsa o'rtasidagi bog'lanishlarga alohida e'tibor qaratgan.

*Qush edim, yo'ldoshim gumrohlar bo'ldi,
Garchi ozor ko'rdim kalxatlaringdan.
O'ksidim. Jonimga tig'lar botsa ham,
Ko'ngil uzolmadim sarhadlaringdan [2.80].*

Mazkur she'rda muallif o'z ichki kechinmalari, hayotiy kurashi va ma'naviy qat'iyatini metaforik obrazlar orqali ifodalaydi. Metafora bu yerda nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki pragmatik ma'no – ya'ni o'quvchiga ta'sir ko'rsatish, muallifning niyatini yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. She'r boshidagi "**Qush edim**" ifodasi metaforik xarakterga ega. Bu yerda "qush" obrazi erkinlik, poklik va orzular sari parvoz qilish ramzi sifatida ishlatilgan. Pragmatik jihatdan bu metafora muallifning o'zini erkin fikrlovchi, orzulari baland inson sifatida ko'rsatish niyatini anglatadi. O'quvchida esa insonning ichki ozodlikka intilishi haqida tasavvur uyg'otadi. Ikkinchi misrada uchraydigan "**kalxatlar**" so'zi ham metafora sifatida qo'llangan. Kalxat aslida yirtqich qush bo'lsa-da, she'rda u yomon niyatli, hasadgo'y yoki zarar yetkazuvchi insonlar timsolini ifodalaydi. Pragmatik jihatdan bu metafora muallifning hayotda duch kelgan qiyinchiliklari va salbiy insonlarga nisbatan munosabatini bildirib, ehtiyotkorlik va hayotiy kurash haqidagi fikrlarni uyg'otadi. Uchinchi misrada "**tig'lar botsa**" ifodasi ham ko'chma ma'noda qo'llanib, inson qalbiga yetgan og'riq, xiyonat yoki ruhiy azobni bildiradi. Bu metafora orqali muallif hayotdagi og'ir sinovlarga qaramay o'z e'tiqodi va yo'lidan qaytmasligini ko'rsatadi. Pragmatik nuqtai nazardan bu o'quvchini sabr va matonatga da'vat qiluvchi ta'sirni hosil qiladi. She'rda qo'llangan "**qush**", "**kalxat**", "**tig'**" kabi metaforalar muallifning hayotiy kurashi, ruhiy mustahkamligi va qadriyatlarga sadoqatini ifodalashga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan bu obrazlar o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatib, muallifning kommunikativ maqsadi – insonni qat'iyatli, vataniga va qadriyatlariga sodiq bo'lishga undash g'oyasini yuzaga chiqaradi. Badiiy asarlarda yozuvchi ma'lum bir predmetlarni boshqasiga o'xshatish orqali o'zi nazarda tutgan axborotga ishora qiladi. Bunda "bayon qilinayotgan propozitsional akt o'xshatish

mazmunidan iborat bo‘ladi va ana shu o‘xshatish kuchlilik belgisi asosida yuzaga chiqib, bunda so‘zlovchi maqsadi aks etadi” [3.101].

Xulosa. Guljamol Asqarova she‘rlarida metafora muhim badiiy va kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira metaforalar orqali inson qalbi, muhabbat va tabiat manzaralarini obrazli tarzda ifodalaydi. Pragmalingvistik jihatdan metaforalar muallifning kommunikativ niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ular o‘quvchining tasavvurini boyitadi va badiiy matnning estetik ta‘sirini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Guljamol Asqarova. Ro‘shnolik. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi, 2000. B. 80.
2. Guljamol Asqarova. Baxt dastxati. – Namangan. Adabiy badiiy nashr, 2004. B. 84.
3. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. Б. 101.
4. Hakimov M. Gazieva Maftuna. Pragmalinvistika asoslari. – Toshkent, 2020.
5. Қўнғуров Р. Бегматов Э. Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Toshkent, 1992. Б.100.
6. Nurmonov.A. Sobirov.A. Qosimova.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2013. B. 190.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934